



QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARIDA TRIKOFITIYA KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Usmonova Xadicha Jo'rayevna

Doktoranti, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tayanch

Anatatsiya:

qishloq xo'jalik hayvonlarida trikofitiya kasalligining kelib chiqishida asosiy sabab, yuqumli va invazion kasalliklarning tashuvchilari va tarqatuvchilari bo'lgan bo'g'imoyoqlilar (chivinlar, ektoparazitlar va h.k.) hamda go'ng hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Veterinariya sanitariyasi, dezinfektsiya, zararsizlantirish, patogen, mikrob, biologik chiqindilar, gigiyena, dezinfektsiya yuvish stantsiyasi, trikofitiya.

Dolzarbli: Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, so'nggi yillarda noqulay ekologik omillar ta'sirida qoramolchilik xo'jaliklarida zoogigienik qoidalarining buzilishi hayvonlarning tabiiy rezistentligi pasayishiga olib kelib, qoramollarda dermatomikozlar oilasiga kiruvchi ushbu turdagi Trixofiton verrucosum, Microsporum va Trixofiton mentagrophytes kasalliklarining alohida uchrashiga nisbatan birgalikda aralash holda kechish kuzatilmoqda. Trikofitiya kasalligi bo'yicha nosog'lom ho'jalikning boshqa epizootik sog'lom bo'lgan xo'jaliklar bilan iqtisodiy aloqalarining buzilishi, atrof muhitning sanatsiyasi, shuningdek insonlar salomatligi uchun ham yetarlicha havf tug'dirmoqda.

Zamburug'li infektsiyalar butun dunyoda keng tarqalgan bo'lib, bugungi kunda mikotik infektsiyalar bilan kasallanish o'sishda davom etmoqda. Ko'plab mamlakatlarda ushbu infektsion kasalliklarni oldini olish va davolashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, qoramollar orasida keng tarqalgan trikofitiya qo'zg'atuvchilarini tarqatuvchi zamburug'larga qarshi kurashning zamonaviy, tejamkor hamda yuqori samarali, bezarar usul va vositalarini tadqiq va tadbiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, trikofitiya qo'zg'atuvchilarining tarqalishi va ularga qarshi ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyatining Pstdarg'om tuman Ravot va Yuqori Bog'anali mahallasidagi aholi qaramog'ida trixofitiya kasalligi bilan kasallangan buzoqlar saqlangan molxonalardan olingan 16 ta go'ng namunalari tekshirishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot natijalari: Samarqand shahar oziq-ovqat xavfsizligi markazining bakteriologiya laboratoriyasida mikologik tekshirish usullarining mikroskop ostida tekshirilganda ulardan 11 tasida trixofitiya qo'zg'atuvchilari borligi aniqlandi. Zararlangan jun tolasi bilan tushgan trixofitonlar go'ngda 8 oygacha patogenlik xususiyatini saqlab qolishi adabiyotlardan ma'lum. Qo'zg'atuvchining bunday uzoq vaqt davomida hayotchanligini saqlanib qolishi, hayvonlar zax va go'ngdan tozalanmagan molxonalarda saqlanganda trixofitiya kasalligi kelib chiqish xavfini tug'diradi. 2023-2024 yillarda tadqiqotlarimiz natijasida yuqumli va invasion kasalliklar qo'zg'atuvchilarini uzatuvchi eng xavfli omillardan biri go'ng hisoblanishi tadqiqotlarimiz jarayonida o'z isbotini topdi.

Xulosa: 1. Veterinariya sanitariyasi patogen va shartli patogen mikroblarining biologik xususiyatlari haqidagi bilimlarga asoslanadi. Bu mikroorganizmlar hayvonlar (insonlar) organizmida parazitlik qilish bilan bir vaqtda turli tashqi muhit ob'ektlarida uzoq vaqt yashovchanligini saqlab qoladi va chorvachilikka mansub oziq - ovqat mahsulotlari, xom ashyo va ozuqalarni yaroqsiz xolga keltiradi hamda qushlar, hashoratlar, kemiruvchilar, kanalar va boshqa tashuvchilar vositasida uzoq masofa (hudud) larga tarqaladi.

2. Yuqumli va invasion kasalliklar qo'zg'atuvchilarini uzatuvchi eng xavfli omillardan biri go'ng hisoblanadi. Yuqoridagilar inobatga olinganda, molxonalarda o'z vaqtida mexanik tozalash, profilaktik va dezinfektsiya o'tkazilishi yuqumli kasalliklarni oldini olishning muhim sharti hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. X.Ж.Усмонова. The effectiveness of Ivermectin and Multivitamin preparation for the Treatment and prevention of cattle trichophyton disease Central asian journal of the oretical and applied sciences Volume: 04 Issue: 05 | May 2023 ISSN: 2660-5317 1169/1212
2. X.Ж.Усмонова. Қорамоллар трихофития касаллигининг профилактикаси ва даволаш услубларини такомиллаштириш. //Самаркандский Государственный университет, Узбекско-Британско-Российское СП ООО «УзБиоКомбинат» //Материалы Международной научно-практической конференции: «Состояние разработки и производства биологических и ветеринарных препаратов и возможности расширения их локализации» 9-10 сентября 2020 года //225-229 бетлар;
3. Sturgess-Osborne C., Burgess S., Mitchell S., Wall R. Multiple resistance to macrocyclic lactones in the sheep scab mite Psoroptes ovis. Vet. Parasitol. 2019; 272: 79-82. DOI: 10.1016/j. vetpar.2019.07.007.
4. Van Mol Wouter, De Wilde Nathalie, Casaert Stijn and et. all. Resistance against macrocyclic lactones in Psoroptes ovis in cattle. Parasites & Vectors. 2020; 13: 127. DOI:10.1186/s13071-020- 04008-2.